

## О'YIN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR SHAXSINING SHAKLLANISHIDAGI O'RNI

*Kenesbaev Ilham Qilishbay og'li  
Atanazarova Ayjamal Shnibay qizi  
Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti  
Pedagogika va psixologiya t'lim yo'nalishi 4-guruh talabalari*

**Annotatsiya:** Bu maqolada o'yinlarning maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishidagi orni haqida keng turda yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Krizis, "Ideal Men", "Odob -axloqli Men" va "Haqiqiy Men", "mos emaslik affekti", predmetli o'ylarinlar, Syujetli-rolli o'yinlar.

Ontogenezda 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri yoki maktabgacha yosh davri bo'lib hisoblanadi. Bilamizki, bolaning yoshi ulg'ayib mustaqil harakat qilish imkoniyati ortgani sari, uning atirofdagi narsa va hodisalarga qarata dunyoqarashi ham kengayib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi xizmat turi bu -o'yin. Bu yoshtagi bolalarning o'yinlarini uch turga bo'lish mumkin.

1. Predmetli o'yinlar (15-20 daqiqa davomida o'ynaladi)
2. Syujetli-rolli o'yinlar (30-60 daqiqa davomida o'ynaladi)
3. Qoidali o'yinlar (1 soatdan 2 kungacha davom etishi mumkin)

Bag'cha yoshidagi bolalarning o'yin xizmati masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga qaratib kelmoqda. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin xizmati orqali rivojlanib borayotgan hayotimizning barcha tomonlaridan o'z ko'rinishin topadi.

Bola atiroftagi narsalar, voqea va hodisalarni bilish jarayonlari orqali ular bilan to'g'ridan-to'g'ri amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Shu o'rinda bu narsani ham aytib o'tish joyizki, bola bilishga intilyotgan atrofda o'zi uchun tanish narsalarni bilibgina qo'ymay, balki kattalar uchun xos bo'lgan, o'zining kuchi ham yetmaydigan, no'tanish narsalar bilan ham amaliy munosabatta bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o'zi haydashni, haqiqiy otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib, samolyotda uchgisi va haqiqiy militsioner bo'lgisi keladi.

Lekin, bola o'zidagi bunday zarurliklarning bittasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Shu o'rinda savol tug'iladi. Bolalarning yosh davrlariga qarab ortib borayotgan turli zarurliklari bilan ularning cheklangan imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday yechiladi? Bu qarama-qarshilikni faqatgina bir xizmat turi orqali yani, bolani o'yin xizmati yordamidagina yechish mumkin:

Birinchiidan, bolalarning o'yin xizmati qandaydir moddiy mashqlar ishlab shiqarishga qaratilgan xizmat turi emas. Shuning uchun bolalarni o'yinga boshlovchi sababning (motiv) kelib chiqishi natija bilan emas, balki shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmun mohiyati bilan bog'liq.

Ikkinchiidan, bolalar o'yin jarayonida o'z qo'lidagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, lekin kattalarga xos bo'lgan narsalarga aylantirib, xoxlaganicha erkin xizmatda bo'ladi. Bolalarning o'yin xizmatlari ularning fizik va psixologik jihatdan ham shaxs sifatida shakllanishida katta ahamiyatga ega.

O'yin bolalar hayotida juda kop o'milli xizmat turi bo'lib, unda kattalarga xos bo'lgan mehnat, turli narsalar haqida o'ylash, hayol surish, dam olish va mehribonlik jarayonlarining barchasi o'yin xizmatida aniq bo'ladi. Shuni ham aytib o'tish kerak, o'yin faqatgina tashqi olamdagi narsa voqea va hodisalarni bilish vositasigina bo'lib qolmay balki qudiratli tarbiya qurolihamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolaning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual hususiyatlari shakllanadi.

Demak maktabgacha ta'lim-tarbiya ishlarida bolalarning shaxs sifatida shakllanishi ko'p jihatdan ularning o'yin xizmatini maqsadga muvofiq tarzda tashkillashtirish katta ahamiyatga ega. Shunday qilib o'yin bolalarning hayolidan yaratilgan narsa emas, aksincha bolalar hayolining yaratmasi, o'yin davomida paydo bo'lib rivojlanuvchi psixik jarayon. Shuni ham aytib o'tish joyizki, fan, texnika rivojlanib borayotgan bu davrda hayratlantiruvchi narsalar bolalarga bir ertakdek bo'lib ko'rinadi. Natijada ular o'zlarining turli o'yin jarayonlarida ularga taqlid qilib (ya'ni analogik tarzda) har turli hayoliy narsalarni o'ylab topishi shuni anglatadi, ular o'zlarining har xil o'yin xizmatlarida faqat atirofda mavjud narsalardigina emas, balki shu payttagi zarurliklarini ham ifodalaydi.

Bolalarning o'yin xizmatida turli hayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishi odamning (shular qatorida bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni ifodalovchi passiv narsa emas, balki aktiv, ijodiy, yaratuvchanlik jarayonlari ekanligidan xabar beradi

Bolalar o'yin xizmatining yana bir xususiyati bu o'yin jarayonida bolaning bajaruvchi harakatlari umumiy xarakterga ega bo'lishidir. Buni shunday tushinishimiz kerakki, bola o'zining har xil o'yinlarida faqatgina o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir haydovchining, shifokorning, militsioner, tarbiyachining, uchuvchining harakatlarinigina emas, balki umumiy yuqoridagi kasblarning harakatlarini ifodalaydi.

Bu yoshdagi bolalar o'z vaqtining ko'p bo'lagini o'yin bilan o'tkazadi, ayniqsa 3 yoshdan 6-7 yoshgacha o'yinlar ahamiyatli rivojlanish yo'li bo'lib xizmat qiladi.

Predmetli boshqarish va qoidali, shuningdek syujetli-rolli o'yinlar juda katta ahamiyatga ega. Bu yosh davrida barcha o'yin turlarini ko'rish mumkin.

Bu yosh davri davomida bolalarning quyidagi asosiy xizmat turlari ketma-ketlikda rivojlanib boradi: predmetli o'yin, guruhiy syujetli-rolli o'yinlar, individual

va guruhiy ijod, o'yin-musobaqa, o'yin-suhbat va shuningdek o'z-aro munosabat, uy mehnati bu yosh davrida bolaning shaxs sifatida har taraflama yetilishida katta o'rin egallaydi

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar asosan predmetli, har xil o'yinchoqlar bilan o'zlari yolg'iz o'ynaydi. O'zlarining predmetli va konstruktorli o'yinlarida esda saqlash, hayol va o'ylash diqqat kabi bilish jarayonlari, shuningdek o'z harakat qobiliyatlarini rivojlantirib boradi.

Albatta, turmush tajribalari va xizmatlari doirasi cheklangan kichik yoshdagi bolalar( ayrim kichik guruh bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida konkret odamlarni va ularning harakatlarini ifodalaydi.

Orta va katta yoshdagi bolalarning o'yinlarida bo'lsa bunday obrazlar umumiy xarakterge ega bo'la boshlaydi. Asta sekin orta maktabgacha davrga borib o'yin guruhiy xarakterga ega bo'la boshlaydi va unga ko'proq bolalar qo'shila boshlaydi. Bolalarning individual xususiyatlarini, ularning guruhiy o'yinlar davomida nazorat qilish qulay. O'z o'yinlarida bolalar kattalarning predmetlariga munosabatlarinigina emas, balki ko'proq ularning o'z-aro munosabatlarini ifodalaydi va ularga taqlid qiladi.

Shuningdek, guruhiy o'yinlarda bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy xizmatlarini ifodalaydi. Masalan "Poezd" o'yinini olaylik. Bunda mashinist, paravozga ko'mir yoquvchi, provodnik, kontrolyor, kassir, stanciya xizmatkorlari va yo'lovchilar bo'ladi. Bolalarning mana shu kabi guruhiy o'yinlari artistlarning xizmatiga o'xshaydi. Sababi guruhiy o'yindagi har bir bola o'z rolini yaxshi bajarishga talpinishi bilan birga, o'yinning umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka urinadi. Bu bo'lsa har bir boladan o'zining barcha qobiliyatini ishga solishini talab qiladi.

Belgili rollarga bo'lingan guruh o'yini, bolalardan qoidalarga bo'ysinishga va ayrim vazifalarni talab darajasida orinlashni talab qiladi. Shuning uchun bolalarning bunday guruhiy o'yinlari psixologik jihattan katta ahamiyatga ega. Sababi bunday o'yinlar bolalarda qattiyatlilik, yaxshi xulq- atvor va o'yin qoidalarga, tartib-intizomga bo'ysingan va shu kabi ijobiy fazilatlarini tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Eng asosiysi bu o'yinlarda kattalarning predmetli dunyoga bo'lgan xulq-atvori takrorlanmaydi, odamlar orasidagi munosabatlarga, shulardan-rollarga imitatsiya(taqlid qilish) qilinadi. Bolalar shu munosabatlarda asosida quriladigan rollarni va qoidalarni ajiratadi, o'yinda unga amal qilishga harakat qiladi. Bolalarning syujetli-rolli o'yinlari turli mavzularda bo'lib, bolalar ular bilan hayotiy tajribalar bilan tanishadi.

Bolalar tarafidan o'yinlar qayta bajaruvchi rollar- oilaviy, ( ona, ota, kampir, ota va opa, bola va qiz) yoki tarbiyaviy (bog'chadagi tarbiyachi) yoki ertak qahromonlari ( bo'ri, ayiq, tulki, quyon, echki)yoki kasbiy (shifokor, komandir, uchuvchi). Rollarni ijro etuvchilar kattalar yoki bolalar yoki ularning o'rnini bosuvchi o'yinchoqlar, qo'g'irchoqlar bo'lishi mumkin.

Shu yosh davrlarida rivojlanish zarur bo'lgan ikki xizmat turining boshlanishi bilan bog'liq: mehnat va o'qish. Bu yoshdagi bolalarning o'yin, mehnat va o'qishni o'zlashtirishni ketma-ket bosqichini aniqlash mumkin, bunda *maktabgacha yosh davri* (3-4 yosh), *o'rta maktabgacha yosh davri* (4-5 yosh) va *katta maktabgacha yosh davri* (5-6 yosh).

Mana shu yosh davrlar psixologiyasida bolalarning psixologiyasi va xulq-atvoridagi, shaxs sifatidagi tez va sifatli o'zgarishlarni aniqlash uchun o'tkaziladi. Kichik maktabgacha yoshdagilar hali, qoidaga muvofiq, yolg'iz o'ynaydi. O'zlarining predmetli va konstruktorli o'yinlarida esda saqlash, o'ylash, ong va harakat qobiliyatlarini rivojlantirib boradi. Shu yoshdagi bolalar syujetli-rolli o'yinlarda odatda kundalik hayotda ko'rinadigan kattalarning harakatlarini qayta yuzaga chiqaradi..

Orta va katta maktabgacha yosh davrida syujetli-rolli o'yinlar rivojlanadi, lekin kichik maktabgacha yosh davridagi o'yinlarga kiruvchi mavzular, rollar, o'yin harakatlarining qoidalari bilan farqlanadi. Tabiiy xarakterdagi ko'pgina predmetlar shartlilariga almashtiriladi va aniq o'yin boshlanadi.

Shuning bilan birga maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun o'yinlar ularni har taraflama rivojlantiruvchi asosiy qurol bo'lib hisoblanadi. Sababi bolalar juda qiziquvchan, diqqat e'tiborini bir narsaga uzoq vaqt jamlab tura olmaydigan xarakterga ega bo'ladi. Shuning uchun bolalarni o'yinlar yordamida tarbiyalab, ularni bilim qilishga, odob-axloqqa, yoshi kattalarni hurmat qilishga shuningdek kichkinaligidan qandayda bir kasbga yo'naltirishga ham bo'ladi.

Barchamizga ayonki bolalar tarbiyasida o'yinlar katta rol o'ynaydi. Haqiqatdan ham bolalar o'yinlar natijasida atirofni taniy boshlaydi, his-tuyg'ulari payda bo'ladi, o'z-aro munosabatga kirishib, jamiyatga moslasha boshlaydi. Shuningdek o'yin xizmati davomida bolalar o'z harakatlarini kattalar harakati bilan taqqoslaydi, kattalardan o'rnak oladi. Shu sababli kattalar bolalarning harakati, xulq-atvorining rivojlanishida objekt va subiekt hisoblanadi

Bolalar o'yinlari asosan 2 turga: ijodiy va qoidali o'yinlar bo'lib bo'linadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ongi va oylash doirasining kengayishida bu o'yinlarning o'рни alohida.

Ijodiy o'yinlarga bolalarning o'zlari o'ylab- topgan har xil o'yin turlari kiradi. Bu o'yinlar bolalarning o'ylash doirasini, ijodiy qobiliyatini rivojlanishida va o'z dunyosini yoritishga imkoniyat beradi. Qoidali o'yinlar bo'lsa kattalar tarafidan yaratiladi va bolalar hayotiga olib kiriladi. Bu o'yinlarga harakatli, estafetalik, milliy va sport o'yinlari kiradi.

A.P.Usmanovning tadqiqotlariga ko'ra, rolli o'yin ishtirokchilarining soni, yoshi o'sgani sari o'yin vaqti ham ortib boradi.

a) uch yoshli bolalar 2-3 dan guruhga birlashib, 3-5 daqiqa birga o'ynay oladi.

b) 4-5 yoshlilar guruhi 2-3 dan ishtirokchilardan iborat bo'lib, ularning sheriklekdagi xizmati 40-50 daqiqa davom etadi, o'yin davomida ishtirokchilar soni ham ortib boradi.

v) 6-7 yoshli bolalarda rolli o'yinni guruh bo'lib birga o'ynash fikri paydo bo'ladi, natijada dastlab rollar bo'lishtiriladi, o'yinning qoida va shartlari tushintiriladi (o'yin davomida bolalar bir-birining harakatlarini diqqat bilan nazorat qilib boradi).

Plexanovning fikricha "O'yinlar turli avlodlarni birlashtiruvchi va madaniy qadriyatlarni avlodtan-avlodga o'tkazuvchi zanjir bo'lib xizmat qiladi" deb aytib o'tgan edi. Darhaqiqat o'yinlarni bolalar o'z tengdoshlari bilan bo'lgan o'z-aro munosabatlarni shakllantiribgina qo'ymay shuning bilan birga ota-onalari bilan birgalikda o'yinlar o'ynasa ular o'rtasida ham bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati ortib boradi.

Farzand ota-onasiga o'zidagi qiziqishlarini bildiradi. Bolalarning har taraflama chaqqon, o'z-aro munosabatga kirishuvchan bo'lib yetilishishida bizning o'yinlarimiz "Oq terakmi ko'k terak", "Asiq" kabilar katta ta'sir ko'rsatadi, sababi bu o'yinlarni ota-bobolarimiz ham sevib o'ynagan. Bu o'yinlarni o'ynash orqali bolalarda chaqqonlik, esda saqlash, mimika, gapirish, mehnatga qiziquvchanlik, jamoa bo'lib birga ishlashish kabi ko'nlikmalar rivojlanadi.

Katta bog'cha yoshidagi syujetli-rolli o'yinlar bolsa o'z mazmunining boyligi har xillogi bilan farqlanadi. Bu o'yinlar jarayonida bolalarda sardorlik qobiliyati yuzaga kela boshlaydi, ularda tashkillashtiruvchilik konlioma va mahoratlari rivojlana boshlaydi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqalar katta ahamiyatga ega bo'lib, mana shu o'yinlarda g'olib bo'lishga harakat qilib oldiga talpinadi.

Katta bog'cha yoshidagi bolalarda konstruktorlik o'yinlari asta-sekinlik bilan mehnat xizmatiga aylanib boradi, o'yinda bola oddiy mehnat konlikma va mahoratlarini egallay boshlaydi, predmetlarning xususiyatlarini anglay boshlaydi.

3-7 yoshli bolalarning psixik rivojlanishida ijodiy xizmat turi bo'lgan musiqaning ham ahamiyati juda katta.

Oyin xizmati bolalarni insoniyatning jamiyat tajribasin egallashning aktiv formasi bo'lgan ta'lim xizmatiga tayyorlaydi. Inson darhol jamiyat tajribalsini o'zlashtirishga kirisha olmaydi. Jamiyat tajribasini aktiv egallash uchun inson dastlab yetarli darajada gapirish qobiliyatini egallagan bo'lishi, belgili ko'nlikma va tushunchalarga ega bo'lishi kerak. Bularga bola odatta o'yin xizmati orqali erishadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Z.Nishanova, G.Alimova "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" T.: 2006
2. Z.T.Nishanova ham basqalar "Rivojlanish psixologiyasi pedagogic psixologiya" T.: 2018
3. Davletshin M.G. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T. 2000